



Qo'qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 3/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ. Научный вестник

№3/2025

УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99	Bosh muharrir: Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas'ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor N.A.Kadirova Mas'ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i D.O'rinboyev Nashr uchun mas'ul: M.Z.Muydinov
MUASSIS: Qo'qon davlat pedagogika instituti Qo'qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o'n ikki marta chop etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san'atshunoslik fan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIIY FANLAR И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) V.U.Xo'jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) M.T.Isog'aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'ZB) A.Jh.Xusanov-fizika-matematika fanlari nomzodi, docent (O'ZB) O.A.Turdiyev, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) G'M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.No'monov, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB) IJTIMOIIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB)

<i>Ergashev Doniyorbek Maxammadali o'g'li</i>	
XORAZM TARIXINING MUHIM JIHATLARINI O‘RGANISHDA XOTIRALARNING O‘RNI <i>Alisher Matyakubov</i>	728
VAQTLI MATBUOTDA 1920–1924-YILLAR XORAZM SIYOSIY-IJTIMOIIY TARIXIGA OID JARAYONLARNING YORITILISHI <i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	734
O‘ZBEK MILLIY TAOMLARINING TAQVIMIIY MAROSIMLAR TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI <i>Sarimsokov Abdilatip Abdiraximovich</i>	741
JAMOATCHILIK NAZORATI: GENEZISI, NAZARIYA VA AMALIYOT <i>Abdullayev Tursunboy Yaxshiboyevich</i>	748
YANGI O‘ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASHDA TASHQI INVESTITSIALARNING O‘RNI (Farg‘ona vodiysi misolida). <i>Raxmonov Elyor Abdullajonovich</i>	753
QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING AN‘ANAVIIY BAYRAMLARI VA SAYLLAR <i>Farrux Tursunov</i>	759
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARDA ALTRUIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY AHAMIYATI <i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i>	765
YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA PREVENTIV CHORALARNING TA‘LIMIIY AHAMIYATI (MILLIIY VA XALQARO TAJRIBA MISOLIDA) <i>Ibragimov Shuxrat Isroilovich</i>	770
OILA HUQUQINING O‘QITISHDA TALABA YOSHLARNING HUQUQIIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH METODOLOGIK ASOSLARI <i>Iminova Dilbarxon Mannabovna</i>	776
DAVLAT BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLAR ROLINI OSHIRISH <i>Iminova Dilbarxon Mannobovna</i>	779
ISLOM TA‘LIMOTIDA O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI GENDER TENGLIGI MASALASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI <i>Aripov Shokirjon Olimovich</i>	783
КЎЧМАНЧИ ИМПЕРИЯЛАР ЗАИФЛАШУВИДА СИЁСИЙ ЭЛИТА ТРАНСФОРМАЦИЯСИНING ЎРНИ (ТУРК ХОҚОНЛИГИ МИСОЛИДА) <i>Эргашев Жаҳонгир Юнус ўғли</i>	788
NAMANGAN VILOYATI HUDUDIDA SUV-IRRIGATSIYA TIZIMI VA SUG‘ORISH INSHOOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI <i>Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o'g'li</i>	796
AMIR ҲАЙДАР ДАВРИДА БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ИЧКИ ВА ТАШҚИ СИЁСАТИ <i>Karimov Navro'zbek</i>	807
MEDIASAVODXONLIKNING YOSHLARNING FIKRLASH TARZI VA QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA‘SIRI <i>Boymatov Farhodjon Ziyodqo‘zi o'g'li</i>	812
O‘ZBEKISTON – QOZOG‘ISTON DAVLATLARARO ALOQALARINING MINTAQAVIIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI <i>Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna</i>	817



O'ZBEKISTON – QOZOG'ISTON DAVLATLARARO ALOQALARINING MINTAQAVIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

*Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti Universiteti katta o'qituvchisi*

ORCID 0000-0003-0940-6878

kamola.abdurazakova@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo hududidagi ikki davlat O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi davlatlararo aloqalar tushunchasi yoritilgan. Tarixiy nuqtayi nazardan O'zbekiston va Qozog'istonni ming yillar davomida o'zbek va qozoq xalqlarining bir geografik makonda istiqomat qilishi, yagona dini, o'xshash tili, madaniyati va urf-odatlarining umumiyliigi kabi ko'plab an'analar birlashtirib turadi. Siyosiy prizmadan olib qaralganda esa ikki davlatning boshqaruv tizimi demokratik tamoyillarga asoslanganligi, shuningdek, ko'p qirrali tashqi siyosat olib borishi, mintaqada yaxshi qo'shnichilik muhitini yaratish, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga amal qilish singari o'zaro o'xshash jihatlar ikki qardosh mamlakatni har doim do'stona munosabatda bo'lishga undab keladi. Maqolada bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari doirasida Markaziy Osiyo davlatlari hududida erkin iqtisodiy va xavfsiz zonani yaratish uchun olib borilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qozog'iston, Markaziy Osiyo, konsepsiya, tashqi siyosat, davlatlararo aloqalar, hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация. В статье рассматривается концепция межгосударственных отношений между Узбекистаном и Казахстаном в Центральной Азии. С исторической точки зрения Узбекистан и Казахстан объединяют многие традиции, такие как проживание узбекского и казахского народов на одном географическом пространстве на протяжении тысячелетий, единая религия, схожий язык, культура и общие обычаи. С политической точки зрения такие сходства, как то, что системы управления двух государств основаны на демократических принципах, а также проведение многогранной внешней политики, создание добрососедской обстановки в регионе и соблюдение общепризнанных принципов международного права, всегда побуждали две братские страны поддерживать дружеские отношения. В статье рассматриваются политические и

экономические реформы, проводимые в настоящее время по созданию свободной экономической и безопасной зоны на территории стран Центральной Азии в рамках кооперационных отношений между Узбекистаном и Казахстаном.

Ключевые слова: Узбекистан, Казахстан, Центральная Азия, концепция, внешняя политика, межгосударственные отношения, сотрудничество, региональная безопасность, региональное сотрудничество.

Abstract: This article discusses the concept of interstate relations between Uzbekistan and Kazakhstan in Central Asia. From a historical point of view, Uzbekistan and Kazakhstan are united by many traditions, such as the fact that the Uzbek and Kazakh peoples have lived in the same geographical space for thousands of years, a single religion, a similar language, culture, and common customs. From a political perspective, the similarities between the two countries' systems of governance based on democratic principles, as well as their multifaceted foreign policies, the creation of a good-neighborly environment in the region, and adherence to universally recognized principles of international law, have always encouraged the two brotherly countries to maintain friendly relations. The article discusses the political and economic reforms currently underway to create a free economic and secure zone in the territory of the Central Asian countries within the framework of cooperative relations between Uzbekistan and Kazakhstan.

Keywords: Uzbekistan, Kazakhstan, Central Asia, concept, foreign policy, interstate relations, cooperation, regional security, regional cooperation.

Asosiy qism. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi aloqalarning bugungi kunda jadal rivojlanishida hamda aynan ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy hamkorlik rivojlanishida alohida o‘rin tutishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlari Markaziy Osiyo mintaqasida har tomonlama yetakchi maqomga ega bo‘lgan aktorlar hisoblanadi. Misol tariqasida, Qozog‘iston YaIMi deyarli qolgan barcha mintaqada davlatlarining YaIMlarini qo‘shib hisoblaganda teng bo‘lsa, O‘zbekiston aholisi soni bo‘yicha mintaqada birinchi o‘rinda turadi. Har ikki davlat ham rivojlanib borayotgan mintaqada davlatlari sifatida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdordir.

O‘zbekistonning imkoniyatlari va Markaziy Osiyodagi ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

1. *Geografik joylashuv.* O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan bo‘lib, mintaqaning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega bo‘lgan yagona mamlakatdir [1; 72]. Amerikalik siyosatshunos N.Spikeman o‘zining “Geografiya va tashqi siyosat” nomli maqolasida davlatning geografik joylashuvi mamlakat tashqi siyosatida hal qiluvchi omil ekanligini ta’kidlagan [2; 213-236]. Uning fikricha, geografik joylashuv davlatlarni urush, barqarorlik va tinchlik davrida tayanadigan hududiy asosidir. Shuni ta’kidlash kerakki, bu omil

eng doimiy va asrlar davomida o‘zgarishsiz qolmoqda. Shuning uchun geografik o‘rin tashqi siyosat faoliyatining asosiy mezonini ekanligi mantiqan to‘g‘ri. O‘zbekiston mintaqaning eng markazida joylashganligi, besh mamlakat bilan umumiy chegaraga ega, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashning tashabbuskori va muvofiqlashtiruvchisi bo‘lish imkonini beradi.

2. *Umumiy tarix va madaniyat.* O‘zbekiston tashqi siyosatining yo‘nalishidagi o‘zgarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, mintaqamiz xalqlari bir-biri bilan ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik bilan bog‘liq. Bizni umumiy tarix, din, madaniyat va an‘analar birlashtirib turadi.

3. *Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy rivojlanishi.* Bugungi kunda globallashtirish va axborot texnologiyalari olamida faol mintaqaviy va xalqaro hamkorliksiz iqtisodiy rivojlanish mumkin emas. O‘zbekistonning geografik o‘rni, bir vaqtning o‘zida, unga imtiyozlar yaratadi va iqtisodiy taraqqiyotiga ham to‘siq bo‘ladi. O‘zbekiston nafaqat dengizlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniga ega bo‘lmagan, balki dengizga chiqish uchun ikki mamlakat hududini kesib o‘tishga majbur bo‘lgan “double landlocked” mamlakatdir. Bu milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, chunki u ichki tovarlar eksportini murakkablashtiradi. Shuning uchun yaqin qo‘shnilar bilan yaqin iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish zarur.

4. *O‘zbekiston atrofida xavfsizlik kamarini yaratish.* Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni hisobga olmasdan turib bu vazifaga erishish mumkin emas. O‘zbekiston mintaqani barqaror rivojlanish va yaxshi qo‘shnichilik zonasiga aylantirishdan bevosita manfaatdor. Mintaqaviy xavfsizlik dolzarbdir, chunki siyosiy va harbiy tahdidlar uzoq masofalarga qaraganda qisqa masofalarga osonroq tarqaladi[4; 16]. Bu borada, nazarimizda, mintaqada barqarorlikni ta‘minlashda mintaqaviy integratsiyalashgan xavfsizlik muhim o‘rin tutadi.

5. *Transchegaraviy daryolardan oqilona foydalanishda hamkorlik.* Amudaryo va Sirdaryo daryolari Markaziy Osiyoning asosiy suv arteriyalari hisoblanadi. Shu bois, mazkur suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish hamda ushbu muammoni oqilona hal etish zarurati mintaqadagi barcha mamlakatlar uchun dolzarbdir. 2017-yilda O‘zbekiston qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda suv resurslarini almashish, chegaralarni aniqlash, nazorat nuqtalarini ochish va qayta tiklash hamda transport aloqalarini kengaytirish kabi ko‘plab nozik masalalarni hal etish bo‘yicha bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Prezident BMT Bosh Assambleyasida qilgan nutqi davomida O‘zbekiston BMT Bosh kotibining “suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari bir-biri bilan uzviy bog‘liq” degan pozitsiyasi naqadar haqiqatga yaqin ekanini ta‘kidladi. O‘zbekiston BMTning mintaqaviy preventiv diplomatiya markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha konvensiyalar loyihasini qo‘llab-quvvatlaydi.

6. *Muammoli masalalarni hal etish.* Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir muhim masala – Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yillar davomida hal qilinmagan muammolar. Ulardan eng asosiysi – davlat chegaralarini demarkatsiya qilish va chegaralash, transchegaraviy

daryolar suvlaridan foydalanish kabilarni keltirish mumkin. Ba‘zan ular ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarda keskinlik, chegaralardagi nizoli vaziyatlarga olib kelgan. Ayrim sabablarga ko‘ra, bu masalalar Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligining dastlabki yillarida hal etilmagan, bu chegaralarning ikki tomonida yashagan oddiy fuqarolarga ta‘sir ko‘rsatgan.

Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir muhim masalalarning eng og‘iri – davlat chegaralarini demarkatsiya qilish va chegaralash, transchegaraviy daryolar suvlaridan foydalanish, yirik gidroelektrostansiyalar qurish va boshqa masalalar edi. Ular ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarda keskinlik, chegaralardagi nizoli vaziyatlarga ham olib kelgan.

Davlat chegaralarini demarkatsiya qilish va delimitatsiya qilish masalalari Toshkent va Bishkek o‘rtasidagi munosabatlarda o‘ziga xos muammoga aylangan edi. Sh.M.Mirziyoyev bu masalani hal qilishga va qirg‘iz-o‘zbek chegarasini “do‘stlik chegarasi”ga aylantirishga chaqirdi. Natijada Qirg‘iziston bilan davlat chegarasi to‘g‘risida bitim imzolaniib, chegara masalasini hal qilishga asos solindi. Tojikiston bilan muntazam reyslarni qayta tiklash borasida kelishuvga erishildi.

7. *Afg‘on muammosini hal qilishda yaqin hamkorlik qilish zarurati.* Bugungi kunda Afg‘oniston muammosini hal qilish bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan bir qator ijobiy yutuqlarga erishildi. 2018-yilda Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro konferensiya va 2019—2020-yillarda Tolibon siyosiy harakati bilan olib borilgan muzokaralar o‘z natijasini bera boshladi. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishi hamda iqtisodiy tiklanishiga ko‘maklashish, davlatda infrastrukturani yaxshilash bo‘yicha bir qator loyihalarni amalga oshirmoqda. So‘nggi yillarda hokimiyat tepasida kelgan Tolibon raxbariyati bilan ikkitomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni yangi darajaga olib chiqish bo‘yicha yuqori darajada muzokaralar olib borib kelimoqda. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishi hamda iqtisodiy tiklanishiga ko‘maklashish, davlatda infrastrukturani yaxshilash bo‘yicha bir qator loyihalarni amalga oshirmoqda.

Xususan “Xayraton–Mozori Sharif” temir yo‘lini Eron bilan bog‘laydigan “Mozori Sharif - Xirot” temir yo‘l qurilishini amalga oshirish orqali Transafg‘on transport korridori amalga oshirilishi O‘zbekiston uchun muhim savdo-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, logistika harajatlarini ancha miqdorga arzonlashtiradi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Afg‘onistonga elektr energiyasi yetkazib berishda yetakchi o‘rinda turib, bugungi kunda «Surxon-Puli Xumri» elektr uzatish liniyasi orqali elektr energiyasi eksport qilinadi. Mazkur tarmoq keyinchalik Markaziy Osiyo – Janubiy Osiyo loyihasi (CASA -1000) amalga oshirilishida hamda Markaziy Osiyo davlatlaridan Janubiy Osiyo davlatlariga elektr energiyasi eksport qilishda muhim ahamiyatga ega.

8. *O‘zaro savdoni yengillashtirish, investitsiya va mintaqaviy moliyaviy integratsiya bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik.* Faol iqtisodiy diplomatiya mintaqa davlatlarining eng muhim vazifasiga aylandi. Mamlakatlar o‘rtasidagi jahon iqtisodiy aloqalarining baynalmilallashuvi va globallashtiruvining jadal sur‘atlari o‘z iqtisodiyotlarining o‘zaro bog‘liqligini rivojlantirish va

kengaytirish imkonini berdi. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlari rivojlanishini rag‘batlantiruvchi muhim omillardan biri xorijiy investitsiyalardir.

2017-2022 yillar ichida O‘zbekistonda xorijiy investorlarga yaratilgan sharoitlar hamda imkorinyatlar pandemiyadan keyingi davrda yildan yilga o‘tib bormoqda. Bundan tashqari mintaqa davlatlari bilan, ayniqsa Qozog‘iston Respublikasi bilan olib borilayotgan ikki tomonlama investitsiyalarni o‘zaro jalb qilish hamda qo‘llab-quvvatlash kutilgan natijalarni berayapti. Qolaversa, mintaqaning o‘zi geografik va geosiyosiy joylashuvi jihatidan quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, mintaqa jahon savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan bo‘lib, Yevrosiyaning “yuragi” hisoblanadi, mintaqa Yevropa va Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi ko‘priklar bo‘lib, Rossiya va Xitoy kabi yirik davlatlar bilan chegaradosh.

Ikkinchidan, mintaqa jahon kuchlari manfaatlari to‘qnashgan mintaqa hamdir. Tashqi siyosatimiz Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlash yo‘llari aniq maqsadli va aniq strategik qarashga asoslanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, ayni paytda Markaziy Osiyoda jahon davlatlari manfaatlari kesishadi, mintaqa beqarorlik va mojarolar girdobiga tutashib, yaqin va uzoq xorijda kechayotgan barcha salbiy jarayonlarning ta‘sirini boshdan kechirmoqda. Mintaqa barqaror taraqqiyoti va farovonligining mustahkam asosi va kafolati hamkorlikka tayyorlik va samimiy intilish, shuningdek, barcha Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy kelajak uchun mas‘uliyati ekaniga qat’iy ishonch hosil qilish mumkin.

O‘zbek-qozoq aloqalarining konseptual jihatlarini to‘ldiradigan manbalar sirasiga – 2012-yil qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi hamda 2014-yilda qabul qilingan Qozog‘iston Respublikasining 2014—2020-yillarga mo‘ljallangan Tashqi siyosat konsepsiyasini kiritish mumkin. Bu ikka rasmiy hujjatning tahlilidan ko‘rindiki, ushbu konsepsiyalarning o‘ziga xos farqli tomonlari mavjud. Bugungi kunda jamiyatda jadal islohotlar kechayotgan sharoitda Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining Markaziy Osiyodagi xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish deb nomlangan 94-maqsadida Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi ilgari surilgan. Bu, ayni jihatdan, mintaqamizdagi hamkorlik jarayonlariga doir keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqotlarga zaruriyat mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining uchinchi bo‘limi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib ushbu bo‘limda O‘zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadigan mintaqa va davlatlar ketma-ketligi o‘rin olgan. Bu ro‘yxatda Markaziy Osiyo mintaqasi birinchi o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘lib, mamlakatning hayotiy muhim manfaatlari bu mintaqa bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston o‘zining yaqin qo‘shnilari bilan munosabatlarda doimo ochiq, do‘stona

va pragmatik siyosat yuritish tarafdori bo‘lib qoladi, mintaqadagi barcha dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolar o‘zaro manfaatlarni hisobga olgan holda, amaliy muloqot va xalqaro huquq normalari asosida hal etilishini yoqlaydi. Markaziy Osiyoning muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz mintaqadagi davlatlarning o‘zlari tomonidan yechilmog‘i zarur[8; 12].

Buning mohiyati shundan iboratki, O‘zbekiston geosiyosiy jihatdan Markaziy Osiyoning yuragida joylashganligi sababli o‘z tashqi siyosatini mintaq bilan uzviy bog‘lagan. O‘zbekiston mintaq davlatlari bilan olib boriladigan munosabatlarini rivojlantirishni tashqi siyosatning birinchi galdagi ustuvor vazifasi deb qaraydi. Shundan kelib chiqib, har doim qo‘shni mamlakatlar bilan konstruktiv va pragmatik muloqotlarni jadal rivojlantirish tarafdori bo‘lib qoladi. Ya’ni O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarini *win-win* strategiyasiga tayanib amalga oshirishga e’tibor qaratmoqda.

Shu o‘rinda O‘zbekiston qo‘shni Qozog‘iston bilan ham o‘zaro manfaatli, ochiq, samarali hamda ahil qo‘shnichilik siyosatini davom ettirishni o‘z tashqi siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraydi. O‘zbekiston *winner takes all* (muayyan masalada ustun kelgan yoki g‘alaba qozongan tomon natijada hamma narsaga egalik qilishini anglatadigan tamoyil) strategiyasini tashqi siyosatning instrumenti sifatida foydalanishni samarasiz va zamon talablariga to‘g‘ri kelmaydi deb hisoblaydi.

Qozog‘iston Respublikasining 2014—2020-yillarga mo‘ljallangan Tashqi siyosat konsepsiyasiga e’tibor berilsa, Markaziy Osiyo mintaqasiga taalluqli boshqacha tasvir namoyon bo‘ladi. Konsepsiyaning birinchi bo‘limi uchinchi bobi “Mamlakat va mintaqaviy ustuvorliklar”ga bag‘ishlangan bo‘lib, bu bobda Qozog‘iston tashqi siyosatida ustunroq mavqe egallaydigan mintaqalar xususida so‘z yuritiladi. Ustuvor mintaqalar pog‘onasida Markaziy Osiyo ko‘pchilik prognoz qilgandek birinchi o‘rinda emas, balki uchinchi o‘rindan joy olgan. Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikalari ro‘yxatning birinchi hamda ikkinchi pog‘onalarini band etishgan. Uchinchi ustuvor mintaq sifatida Markaziy Osiyo quyidagicha tavsiflanadi:

Qozog‘iston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari – Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi bilan ko‘p qirrali aloqalarini rivojlantirishda asosiy e’tibor mintaq davlatlarining ichki va tashqi chaqiruv va tahdidlarga birgalikda qarshi kurashish, o‘zaro manfaatli va tenglik asosida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha sa’y-harakatlarini birlashtirishga qaratiladi.

Qozog‘iston va O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi 50 milliondan ortiq kishini o‘z bag‘riga olgan eng yirik bozorlardan biri hisoblanadi. Markazning ishga tushirilishi xizmatlar tizimi, transport va telekommunikatsiya xizmatlari, turistik oqimlarga xizmat ko‘rsatish, xalqaro va mintaqaviy savdoni rivojlantirish borasida keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Qozog‘iston va O‘zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyoning eng yirik bozorlarini Yevropaning eng boy mintaqalari Ural, Sibir va Uzoq Sharq bilan bog‘laydigan, Markaziy Osiyo transport va tranzit

yo‘lagi Shimol-Janubning asosiy ishtirokchilari ekanligi sababli xalqaro savdoning o‘sishi kutilmoqda.

Xulosa. Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasidagi yaqin mintaqaviy hamkorlik uzoq yillar davomida mintqa iqtisodiy taraqqiyotiga to‘sqinlik qilgan ko‘plab muammolarni hal etishga yordam beradi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy bo‘g‘ini – savdo-sotiqni rivojlantirishdir. Chunki qo‘shni mamlakatlar bilan savdo aylanmasining ko‘payishi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotini ta‘minlashda eng muhim omil hisoblanadi. Shu bois bugungi kunda O‘zbekiston savdo-sotiqni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. So‘nggi yillarda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan chuqur islohotlar bu maqsadga erishishda katta rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlari o‘zaro diplomatik aloqalar o‘rnatgan kundan e‘tiboran olib borilayotgan ikki tomonlama munosabatlar qat’iy siyosiy-huquqiy asoslarga tayanadi. Ikki tomonlama shartnomalarning mohiyatiga e‘tibor qaratilsa, ularda ko‘plab mushtarak pozitsiyalarga ega ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Aynan o‘sha o‘xshash pozitsiyalarni huquqiy jihatdan mustahkamlash masalalari ikki tomonni shartnomalar imzolashga undagan va, ko‘pincha, qardosh davlatlarning manfaatlari o‘xshash bo‘lgan hamda har doim bir-birini to‘ldirib borgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalarida ma‘lum yillarda qabul qilingan tashqi siyosat konsepsiyalari ikki tomonlama munosabatlarni huquqiy jihatdan yanada boyitdi. Ushbu konsepsiyalarda tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilangan bo‘lib, qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston va Qozog‘iston geosiyosiy jihatdan geografik joylashuvi, aholisi, umumiy madaniyati, an‘ana va urf-odatlariga ko‘ra, shubhasiz, Markaziy Osiyo uchun ahamiyatli respublikalardir. Bugungi kunda ayrim farqlardan tashqari Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Davlat rahbarlari har ikki tomon uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha aniq va muvaffaqiyatli o‘zaro hamkorlik qiladilar.

O‘zbekiston – Qozog‘iston munosabatlari rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, quyidagi omillarga alohida e‘tibor qaratish kerak.

Ayni vaqtda jahon siyosiy va iqtisodiy hayotida ro‘y berayotgan hodisalar Markaziy Osiyo mintaqasida tarixan tarkib topgan siyosiy-iqtisodiy munosabatlar va o‘ziga xos madaniyatni saqlab qolish uchun har tomonlama aloqalarni rivojlantirish lozimigini ko‘rsatmoqda.

Mintaqadagi ikki davlatning hayotiy, milliy manfaatlari tizimini quyidagi asosiy tushunchalar orqali ifoda etish mumkin: xavfsizlik, barqarorlik, iqtisodiy hamkorlik. Mazkur uch omil bo‘yicha O‘zbekiston – Qozog‘iston munosabatlari tizimida ilgari surilgan takliflar, amaldagi kelishuvlar, belgilab olingan vazifalarni to‘laqonli bajarish ikki davlatning ham ichki salohiyati, ham mintaqaning barqaror rivojlanishida tutgan o‘rnining yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. *Каримов.И.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6 Том. Тошкент 1998, Ўзбекистон НМИУ, 72-бет
2. *Nicholas.J, Spykman.* Geography and Foreign Policy. The American Political Science Review, Vol. 32, No. 2 (Apr., 1938), С. 213-236.
3. Из выступления Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на международной конференции «Центральная Азия: одно прошлое и общее будущее, сотрудничество ради устойчивого развития и взаимного процветания», Самарканд, 11 ноября, 2017г.
4. *Buzan.B & Waever O.* Regions and Powers, The Structure of International Security, Cambridge University Press, 2003, С.16.
5. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади <https://president.uz/uz/lists/view/1063>
6. *Аитов.М* Новая внешняя политика Узбекистана стала катализатором усиления сотрудничества в ЦА *electron manba* <https://isrs.uz/ru/tahliliy-sharhlar/markaziy-osiyo-da-hamkorlikni-kuchaytirishning-muhim-mezoni> kirilgan sana: 14.03.2022
7. О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqi 10.11.2017 <https://president.uz/uz/lists/view/1227>
8. Oliy Majlis axborotnomasi, 2012-yil. 9/1 (1437)-сон. 12-bet.
9. Qozog‘iston va O‘zbekiston ittifoqdoshligining Markaziy Osiyo uchun ahamiyati - UzAnalytics. (2022, December 28). Retrieved from <https://www.uzanalytics.com/siyosat/10507>
10. Концепция внешней политики Республики Казахстан на 2014 – 2020 годы. Elektron manba: <http://kzkazan.ru/ru/vneshnjaja-politika/kontseptsiya-vneshnej-politiki-na-2014-2020/> kirilgan sana: 24.06.2022
11. Указ Президента Республики Казахстан от 9 марта 2020 года «О Концепции внешней политики Республики Казахстан на 2020 – 2030 годы». Электронный ресурс. https://www.akorda.kz/ru/legal_acts/decrees/o-koncepcii-vneshnei-politiki-respubliki-kazahstan-na-2020-2030-gody. Дата обращения: 22.09.2023.
12. Узбекистан и Казахстан подписали соглашение о центре промкооперации "Центральная Азия" Elektron manba: <https://tass.ru/ekonomika/19238269> kirilgan sana: 24.06.2022
13. Особенности новой концепции внешней политики Казахстана Elektron manba <https://cabar.asia/ru/osobennosti-novoj-kontseptsii-vneshnej-politiki-kazahstana> kirilgan sana: 24.06.2022
14. Abdurazakova K. Mutual Relations Between Uzbekistan and Kazahstan: History and Strategic Partnership. *International Journal of Bio-Science and BioTechnology (IJBSBT)*. Published in Vol-11-Issue- 9-October-2019 with ISSN:2233-7849. UGC Approved Sr.№49016 International Indexed and Refferred Journal, p190-199.